

TIJORAT BANKLARIDA AUDITORLIK DALILLARI VA ULARNI OLISH USLIBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Isroilov Boburjon Qo'chqor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi magistranti

Gmail: isroilovbobur@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola audit dalillarining mazmun – mohiyati va ularning olish uslublari, manbalari hamda tijorat banklarida qo'llaniladigan ichki va tashqi audit tomonidan olinadigan auditorlik dalillarining olish uslibiyoti hamda ularning olishning usullarini takomillashtirish haqida.

Kalit so'zlar: *auditorlik faoliyati, audit dalillari, audit xulosasi, molyaviy hisobotlar, ichki audit, audit protsedurasi*

Аннотация. В данной статье речь идет о содержании и характере аудиторских доказательств и методах их получения, источниках и методах получения аудиторских доказательств, полученных в результате внутреннего и внешнего аудита, используемых в коммерческих банках, а также о совершенствовании методов их получения.

Ключовые слова: аудиторская деятельность, аудиторские доказательства, аудиторское заключение, финансовая отчетность, внутренний аудит, процедура аудита.

Annotation. This article is devoted to audit evidence and methods of obtaining it, sources, and methods of obtaining audit evidence obtained by internal and external audits used in commercial banks, as well as improving the methods of obtaining them.

Key words: audit activity, audit evidence, audit conclusion, financial reports, internal audit, audit procedure.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrda "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son qarorining qabul qilinishi audit va auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirishga yana bir turtki bo'ldi. Auditorlik faoliyatini tashkil etishda xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy yondashuvlarni qo'llash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ularning faoliyatini xolisona nazorat qilish, ichki nazorat tizimi va buxgalteriya hisobi tizimiga baho berish, boshqaruv bilan bog'liq xarajatlarini kamaytirish va operatsion xarajatlar tarkibini tahlil qilish orqali ularning optimal miqdorini belgilash, bank kengashiga ob'ektiv axborot etkazib berish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalani ko'rib chiqishda, bank auditing iqtisodiy mohiyatiga to'xtalib o'tish lozim.

Audit moliyaviy dunyoning zarur va muhim qismidir. Buning sababi, kompaniya (bank, sug'urta tashkilotlari, fondlar va boshqalar) ning moliyaviy salomatligi va faravonligini to'g'ri hisob-kitobsiz qo'llab-quvvatlab bo'lmaydi. Muntazam ravishda auditorlik firmalari kompaniyalarning hisobot standartlariga

rioya qilishlarini va eng muhimi ularning moliyaviy ahvolini to'g'ri aks ettirish ta'minlaydi. Audit, ayniqsa aksiyadorlar va kreditorlar, shuningdek istemolchilar va yetkazib beruvchilar hamda potensial investorlar uchun muhimdir. Auditor bu borada to'g'ri xulosa shakllantirishi uchun unga eng avvoli, ishonchli, to'liq dalillar zarur bo'ladi.

Banklarning sog'lom, xavfsiz va ishonchli bank tizimi uchun mustaqil tekshiruv muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida, tijorat banklarida auditorlik faoliyatining boshlanishida eng avvalo, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari asosiy rol o'ynaydi. O'tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi.

Adabiyotlar sharhi

Tijorat banklari faoliyatining auditorlik tekshiruvlaridagi muhim bosqich bu auditorlik dalillarini to'plash va ularni guruhlash hisoblanadi. Chunki tashqi audit ham ichki audit ham ma'lum bir qarorlar qabul qilishi, audit xulosasini ishlab chiqishi yoki bankning ma'lum filiali yoki bo'limining yoki uning ma'lum bir ko'rsatkichlari to'g'risida qaror qabul qilishi uchun ularga ishonchli va yetarli dalillar zarur bo'ladi. Bu ma'lumotlarni to'plash, moliyaviy hisobotning ishonchliligi yoki ishonchsizligi, bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritishga oid belgilangan qoida va nizomlarga muvofiqligini tekshirish va monitoringini amalga oshirish, shu bilan birga bank operatsiyalarining samaradorligi va ishonchliligi bo'yicha Bank Kengashiga maslahatlar berish uchun auditorning shaxsiy fikrini shakllantirish maqsadida ularni umumlashtirishni va baholashni nazarda tutadi.

Auditorlik dalillari bo'yicha turli olimlar o'z asarlarida bayon qilishgan. Rossiyalik olim Ya.V.Sokolov (Ya.V.Sokolov, 2012) o'z tadqiqot ishida auditorlik dalillarning ahamiyatini ochib bergan. Shuningdek, professor A.K.Ibragimov "Auditning xalqaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditning tashkiliy asosi" o'quv qo'llanmasi (Toshkent, 2013 Bank-moliya akademiyasi), professor H.N.Musaev (H.N.Musaev, 2002) auditorlik dalillarini: olinish tartibi, olinish usuli, asoslanishi va kelib chiqish joyi kabi mezonlar bo'yicha turkumlagan. Professor Z.T.Mamatov (Z.T.Mamatov, 2004) ham auditorlik dalillarini uchta mezon (ichki, tashqi, aralash) bo'yicha guruhlab, moliyaviy hisobot auditida qo'llashning uslubiy jihatlarini ochib bergan. Shuningdek, auditorlik dalillarni to'plashga statistik usullarni qo'llash masalalari tadqiq qilingan. E.A.Arens va Dj.Lobbek fikricha (E.A.Arens va Dj.Lobbek, 2012), xalqaro va milliy standartlar hamda auditorlik dalillar va auditorlik muolajalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tushunish auditda muhim ahamiyatga ega. Professor D.Rajaboyev (D.Rajaboyev, 2010) ta'kidlashicha, auditorlik dalillar audit jarayonida tekshirilayotgan mijoz – korxonalar va uchinchi shaxslardan olingan axborotlar hamda ularni tahlil qilish

natijalari bo'lib, moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risida auditorlik xulosasi tuzish imkonini beradi.

Auditorlik dalillari – auditorlik tekshiruv jarayonida auditor tomonidan olingan ma'lumotlar va bu ma'lumotlarning tahlili natijasi bo'lib, ular asosida auditorlik xulosasi chiqariladi (Ibragimov A.K (2013). Auditning xalqaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditning tashkiliy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019).


Auditorlik dalillari – bu bankning moliyaviy hisobotlarining to'g'riligi va muvofiqligini tekshirish uchun auditor tomonidan to'plangan ma'lumotlar. Yaxshi auditorlik dalillari yetarli, tegishli manbadan olingan, ishonchli bo'ladi. Bankda o'tkaziladigan har qanday auditning maqsadi bankning moliyaviy hisobotlarini umume'tirof etilgan buxgalteriya hisobi tamoyillariga xalqaro moliyaviy hisobot tamoyillariga (IFRS), milliy buxgalteriya va moliyaviy hisobot tartib-qoidalariga mos kelishini aniqlashdir. Auditorlik dalillari auditorlarga moliyaviy hisobotlarning to'ri ekanligi hamda u haqda to'g'ri xulosa chiqarish uchun mo'ljallangan. Audit dalillari bank boshqaruvi tomonidan moliyaviy hisobotlarda taqdim etilgan yakuniy ma'lumotlarni tasdiqlaydi va tekshiradi. Agar moliyaviy hisobotlarda firibgarlik va xatolar bo'sa, ularga qarshi qarshi e'tiroz bildiradi va salbiy audit xulosasini taqdim etadi (Hamdamov B.K (2020). Xalqaro audit standartlari. O'quv – uslubiy majmua. –T.: “Toshkent Moliya institute”. 2020 y).

Moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazishda auditor moliyaviy hisobotga, audit yoki auditorlik xulosasiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hodisalar, operatsiyalar va amaliyotlarni tushunish uchun mijozning biznesi haqida yetarlicha bilimga ega bo'lishi yoki bilimni olishi kerak. Moliyaviy hisobotning AXS talablariga muvofiq sifatli auditini o'tkazish uchun auditor ma'lum miqdordagi ma'lumotlarni to'plashi va qayta ishlashi, ular asosida auditorlik hisobotini tayyorlashi kerak. Auditorlik dalillarini tushunish masalasi, ularga qo'yiladigan talablar, ularni olishning tegishli usullari va yo'llarini qo'llash, ayrim turdagi operatsiyalar va hisobot ob'ektlari bo'yicha auditorlik dalillarini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari, tashqi tasdiqlar (so'rovlar) va boshqa jihatlar. bir qator Auditning xalqaro standartlari bilan tartibga solinadi. Auditning xalqaro standartlari “Auditorlik dalillari 500” ga muvofiq, auditorlik dalillari — bu auditor o'z xulosalarini shakllantirishida foydalanadigan ma'lumotlar, ular asosida auditorlik fikri shakllanadi. Auditorlik dalillari moliyaviy hisobotlar uchun asos bo'lgan buxgalteriya yozuvlaridagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, auditorlik tekshiruv vaqtida korxonaning tekshirilgan moliyaviy hisoboti bo'yicha fikr bildirish uchun auditorga kerak bo'lishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar. Bunday ma'lumotlarni olishning soni, turlari, muddatlari va manbalari auditor tomonidan o'z kasbiy mulohazasiga, ichki nazorat tizimiga ishonch darajasiga, auditorlik riski va u bajarishi kerak bo'lgan maxsus vazifalarning umumiy miqdoriga qarab mustaqil ravishda belgilanadi.

Auditorlik hisoboti ma'lumotlarini olish manbalari quyidagilardan iborat:


- bank va uchinchi shaxslarning birlamchi xujjatlari;

- bankning buxgalteriya hisobi registrlari;
 - bankning moliyaviy xo'jalik faoliyati tahlili natijalari;
 - bank va uchinchi shaxslarining og'zaki ma'lumotlari;
 - bank ma'lumotlarini bir-biri bilan va uchinchi shaxs ma'lumotlari bilan taqqoslash;
 - bank mulkini inventarizatsiyasi natijalari;
 - yillik buxgalteriya hisoboti va boshqa xujjatlar.
- Auditorlik dalillarini to'plash quyidagi majburiy mezonlarni aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak (1-rasm):



1-rasm. Auditorlik dalillarini to'plashning majburiy me'zonlari.

Yuqori darajali ishonchni ta'minlash uchun auditorlik dalillari turli vositalar yordamida va turli manbalardan olinadi (2-rasm):



2-rasm. Auditorlik dalillari olinish manbalari.

Tijorat banklarida ichki audit tekshiruvlari davomida ichki nazorat tizimining ishlashiga baho beradi. Uning O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2017-yil 23-mayda 2886-sonli "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari" ga amal qilinishi bo'yicha dalillar o'rganilib chiqiladi.

Bunda qanday dalillar o'rganiladi va olinadi va bu bo'yicha tahlil qilinadi. Ichki audit tijorat banki filialidagi ichki nazorat xodimi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar to'playdi. Bunda ichki nazorat xodimi har bir shubhali va gumonli operatsiya bo'yicha IABS dasturiga kiritib boradi va bu orqali qilingan operatsiyalar shubhali va haqida ma'lumotlar bazasi shakllanadi. Hamda ichki audit tomonidan bank operatsiyalari hamda ichki nazorat xodimi tomonida kiritilgan ma'lumotlar solishtiriladi, tahlil qilinadi hamda bu orqali ichki nazorat xodimining ishiga baho beriladi.

Ichki audit tomonidan quyidagi ichki nazorat qoidalariga asosan asosan dalillar to'planadi:

- bank mijozi tomonidan bank kartasidan mobil ilova orqali bir (bir) yoki bir nechta bank kartalari yoki elektron hamyonlarga bir vaqtning o'zida yoki 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatda takroran pul o'tkazish. (Yani 165 mln so'm va undan yuqori (01.05.2023 yildan BHM 330000 so'mga teng);

- mijoz tomonidan bir (bir) yoki bir nechta bank kartalari yoki elektron hamyonlardan BHMning 500 baravari va undan ortiq pul mablag'larini bir vaqtning o'zida yoki 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatda takroriy ravishda kartaga qabul qilib olish;

- mobil ilova orqali 5 yoki undan ortiq bank kartalaridan (elektron hamyon) bitta xorijiy elektron hamyonga bir vaqtning o'zida yoki 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatda bir necha marta pul o'tkazish;

- bitta xorijiy elektron hamyondan 5 yoki undan ortiq bank kartalariga (elektron hamyonlarga) bir vaqtning o'zida yoki 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatda takroran pul olish;

- mobil ilova orqali bir (bitta) bank kartasidan (elektron hamyon) 5 va undan ortiq xorijiy bank kartalari yoki elektron hamyonlarga bir martalik yoki 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatda bir necha marta pul mablag'larini o'tkazish;

- 5 yoki undan ortiq xorijiy bank kartalaridan yoki elektron hamyondan 1 ta bank kartasiga (elektron hamyonga) bir vaqtning o'zida yoki 30 kundan ortiq bo'lmagan muddatda bir necha marta pul mablag'larini qabul qilish.

- Valyuta ayirboshlash shaxobchalari orqali bir martalik yoki biro y davomida ekvalenti BHMning 500 baravari va undan ortiq bo'lgan xorijiy valyutani sotish va sotib olish;

- Xalqaro pul o'tkazmalari bo'yicha BHMning 500 baravari va undan ortiq bo'lgan xorijiy valyutani olish va uni jo'natish;

Shu bilan birga ichki audit quyidagi mijozlar bilan bo'g'liq holat va operatsiyalarni ham o'rganib, bu bo'yicha dalillar to'playdi.

- Muddati o'tgan passport va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar bo'yicha. Bunda muddati o'tgan passport va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar bo'yicha xisobraqam ochish va ularga xizmat ko'rsatish, shuningdek ushbu mijozlarga bank operatsiyalarini amalga oshirishga ruhsat berish ta'qiqlanadi.

- Guvohnoma muddati tugagan YaTT larning, shuning ularning passport muddatlari hamda yuridik shaxslarning ta'sischi va bosh hisobchilarining shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarining muddati tugagnligini;

Tijorat banklarida ichki audit bankning filliallrini tekshirishda (audit o'tkazishda) quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiradi va ushbu yo'nalishlar bo'yicha auditorlik dalillarini to'playdi hamda ularni tahlil qilish orqali audit xulosasini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarini audit qilish uchun auditorlik firmalari va malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditorlar Markaziy bankdan alohida litsenziya va sertifikat olishlari lozim. Va shundan keyin ular tijorat banklarini audit qilish huquqiga ega bo'ladilar. Tijorat banklarida audit o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi.

	Jami auditorlik tashkilotlari soni	Jami auditorlar soni	Tijorat banklarini audit qilish huquqiga ega auditorlik tashkilotlari soni	Tijorat banklarini audit qilish huquqiga ega auditorlar soni
	139	802	6	20

Xulosa. Audit moliyaviy dunyoning zarur va muhim qismidir. Buning sababi, kompaniya (bank, sug'urta tashkilotlari, fondlar va boshqalar) ning moliyaviy salomatligi va faravonligini to'g'ri hisob-kitobsiz qo'llab-quvvatlab bo'lmaydi. Muntazam ravishda auditorlik firmalari kompaniyalarning hisobot standartlariga rioya qilishlarini va eng muhimi ularning moliyaviy ahvolini to'g'ri aks ettirish ta'minlaydi. Audit, ayniqsa aksiyadorlar va kreditorlar, shuningdek istemolchilar va yetkazib beruvchilar hamda potensial investorlar uchun muhimdir.

Auditorlik dalillari – bu bankning moliyaviy hisobotlarining to'g'riligi va muvofiqligini tekshirish uchun auditor tomonidan to'plangan ma'lumotlar. Yaxshi auditorlik dalillari yetarli, tegishli manbadan olingan, ishonchli bo'ladi. Bankda o'tkaziladigan har qanday auditning maqsadi bankning moliyaviy hisobotlarini umume'tirof etilgan buxgalteriya hisobi tamoyillariga xalqaro moliyaviy hisobot tamoyillariga (IFRS), milliy buxgalteriya va moliyaviy hisobot tartib-qoidalariga mos kelishini aniqlashdir. Auditorlik dalillari auditorlarga moliyaviy hisobotlarning to'ri ekanligi hamda u haqda to'g'ri xulosa chiqarish uchun mo'ljallangan. Audit dalillari bank boshqaruvi tomonidan moliyaviy hisobotlarda taqdim etilgan yakuniy ma'lumotlarni tasdiqlaydi va tekshiradi. Agar moliyaviy hisobotlarda firibgarlik va xatolar bo'sa, ularga qarshi qarshi e'tiroz bildiradi va salbiy audit xulosasini taqdim etadi.

Audit dalillarini olish uchun ushbu dalillarni tekshirish, kuzatish, tasdiqlash, qayta hisoblash, qayta ishlash, tahlil qilish kabi audit protseduralarini amalga oshiradi. Shuningdek bir manbadan olingan buxgalteriya dalillarini boshqa manba bilan solishtiriladi. Bunday auditorlik protseduralari orqali auditor olingan dalillarning buxgalteriya yozuvlarining ichki muvofiqligini hamda hisobotga mos kelishini aniqlashi mumkin.

Adabiyotlar

1. AV-3394 (2022). O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'i bilan Adliya vazirligi tomonidan "Ichki audit milliy standartlari". 2022-yil 24-oktabrda ro'yxatdan o'tkazilgan. AV-3394. <https://audit.mf.uz/>
2. AV-3302 (2022). Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida" gi Nizom. 2022-yil 24-oktabr. AV-3302 sonli Nizom. <https://www.lex.uz>.
3. Auditning xalqaro standartlari 500-standart. Auditorlik dalillari (International standard on auditing. Audit evidence 500). <https://www.ifac.org>
4. Auditning xalqaro standartlari 501-standart. Auditorlik dalili – muayyan moddalarni maxsus ko'rib chiqish (International standard on auditing. Audit evidence—Specific Consideration for selected items 501. <https://www.ifac.org>
5. Hamdamov B.K (2020). Xalqaro audit standartlari. O'quv – uslubiy majmua. –T.: "Toshkent Moliya institute". 2020 y.
6. Ibragimov A.K (2013). Auditning xalqaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditning tashkiliy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 384 b.
7. Isroilov I.B (2006). Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqlar hisobi va tahlilining nazariy va metodologik asoslari: Iq.fan.dok. dis. avtoreferat. – T.: O'z. Res.BMA. 2006. – 40 b.
8. Karimov A.A (2009). Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari: Iq.fan.dok. dis. avtoreferat. – T.: O'z. Res. BMA. 2009. – 34 b.
9. PF-5992 (2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 -2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoni. 2020 yil 15 may. PF-5992. <https://www.lex.uz>.
10. PQ-3946 (2018). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2018 yil 19 sentyabr. PQ-3946. <https://www.lex.uz>.
11. Turayev A.K (2012). O'zbekistonda ichki auditni takomillashtirish yo'nalishlari: Iq.fan.dok. dis. avtoreferat. – T.: O'z. Res. BMA. 2012. – 22 b.
12. O'RQ-677 (2021). O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risidagi" qonun. 2021 yil 25 fevral. O'RQ-677. <https://www.lex.uz>.

13. VM-416 (2022). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi" qarori. 2022 yil 01 avgust. VM-416 sonli qaror. <https://www.lex.uz>.
14. VM-171 (2022). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to'g'risida" gi Nizom. 2022 yil 11 aprel. VM-171 sonli qaror. <https://www.gov.uz>.
15. O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyati milliy standarti (50-son AFMS) " Auditorlik dalillarini tasdiqlash to'g'risida" gi Nizom. 2002 yil 18 aprel. AFMS-50. <https://audit.mf.uz/>
16. <https://www.gov.uz> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi rasmiy web sayti.
17. <https://cbu.uz> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy web sayti
18. <https://audit.mf.uz/> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi sayti.
19. <https://www.lex.uz> O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi electron bazasi.
20. <https://www.ifac.org>. Xalqaro buxgalterlar assotsiyasi rasmiy web sayti.
21. <https://pcaobus.org> Davlat kompaniyasining buxgalteriya hisobini nazorat qilish kengashi rasmiy web sayti.